

“ASIA ALLIANCE BANK” ATB
Kuzatuv kengashining
2021 yil “26” yanvardagi
K-1 - sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

**«ASIA ALLIANCE BANK»
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
KORPORATIV BOSHQARUV SIYOSATI**

Toshkent – 2021 yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur “ASIA ALLIANCE BANK” Aksiyadorlik tijorat banki (bundan buyon matnda – “Bank”) Korporativ boshqaruv siyosati (bundan buyon matnda – Siyosat) O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlariga, “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizomga (Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3254-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) va O‘zbekiston Respublikasining boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek Bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining Banklar uchun korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Korporativ boshqaruvning muayyan tartibotlari Bank ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi, shu jumladan:

- 1) Bank Ustavi;
- 2) Aksiyadorlar umumiyligi to‘g‘risidagi Nizom;
- 3) Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizom;
- 4) Boshqaruv to‘g‘risidagi Nizom;
- 5) Ichki nazorat siyosati;
- 6) Korporativ odob-axloq kodeksi;
- 7) Korporativ boshqaruv kodeksi;
- 8) Axborot siyosati to‘g‘risidagi Nizom;
- 9) Divident siyosati.

1.2. Mazkur Siyosat maqsadi Bank korporativ boshqaruv tizimini tavsiflash va buning asosida Bankda samarali korporativ boshqaruvini amalga oshirishdan iborat.

1.3. Mazkur Siyosatni qabul qilish va joriy qilish quyidagi vazifalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan:

- Bankning samarali faoliyatini ta’minlash;
- Bank aksiyalarining bozor narxi oshishi va kapitallashuv darajasi oshishi hisobiga aksiyadorlar farovonligini yaxshilash;
- Bankning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish;
- Bank moliyaviy barqarorligini oshirish va resurs bazasini mustahkamlash;
- Bank kapitalini muntazam ravishda ko‘paytirish va aktivlar sifatini yaxshilash;
- o‘rtalik muddatli va uzoq muddatli istiqbol uchun Bankning optimal rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ular amalga oshirilishini nazorat qilish;
- korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari manfaatlari muvozanatini ta’minlash.

II. KORPORATIV BOSHQARUVNING ASOSIY TAMOYILLARI VA AKSIYADORLAR HUQUQLARIGA RIOYA QILISH

2.1. Bank korporativ boshqaruvining ustuvor yo‘nalishi aksiyadorlar, hamkorlar va mijozlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, axborot oshkorligi, Bank samarali faoliyatini ta’minlash, uning moliyaviy barqarorligi va daromadliligini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

2.2. Bankda korporativ boshqaruv tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga muvofiq tashkil etilgan:

- Bank boshqaruv organlarining samarali hamkorligi va o‘zaro munosabatlari;
- Bank ichki hujjatlarida belgilanadigan boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari va vazifalarini aniq taqsimlash;

Bank aksiyadorlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, Bank

- ustav kapitalidagi ishtirok ulushlaridan qat’iy nazar, barcha aksiyadorlarga teng munosabatda bo‘lish;

- Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi tarkibini o‘z funksional vazifalarini bajarishda yuqori kasbiy va axloqiy standartlarga amal qiladigan yuqori malakali kadrlar bilan shakllantirish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda Bank boshqaruv organlarining oqilonalik va halollik tamoyillariga riosa qilish;
- Bank to‘g‘risida, shuningdek uning moliyaviy holati, iqtisodiy ko‘rsatkichlari, mulkchilik tuzilmasi to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni o‘z vaqtida oshkor qilish;
- Bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini samarali nazorat qilish va tavakkalchiliklarni boshqarish;
- Bankning kasbiy odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlariga riosa qilinishini ta’minalash va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish.

Muhim korporativ harakatlar

- 2.3. Bank faoliyatida aksiyadorlar huquqlari va manfaatlari ustuvorligi hisobga olingan holda, muhim (jiddiy) qarorlar, shu jumladan qayta tashkil qilish, ustavga o‘zgartishlar kiritish, foydani taqsimlash, balans qiymati yoki xarid qiymati yirik bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish sanasida Bankning sof aktivlari miqdorining ellik foizidan yuqori summani tashkil etadigan mulk predmeti bo‘lgan yirik bitimlarni amalga oshirish, Kuzatuv kengashi va Taftish komissiyasi a’zolarini saylash Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.
- 2.4. Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish tartibi “ASIA ALLIANCE BANK” ATB aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilanadi, unga muvofiq har bir aksiyador o‘zi uchun qulay usul orqali ovoz berish huquqini to‘siqsiz amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish

- 2.5. Aksiyadorlarning qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, har bir aksiyaga ular sonidan qat’iy nazar taqdim qilinadigan bir turdagisi aksiyalar egalari huquqlari tengligini va Bank tomonidan aksiyadorlarga ularning daromadlari darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat’iy nazar bir xil munosabatni ta’minalash korporativ boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.
- 2.6. Bank faoliyatiga o‘z mablag‘larini investitsiya qilgan aksiyadorlar manfaatlarini ta’minalash Bank uchun asosiy ustuvorlik hisoblanadi. Bunda, Bank o‘z rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda va operativ faoliyatni amalga oshirishda korporativ va ijtimoiy mas’ullik masalalarida boshqa manfaatdor taraflarning ham manfaatlari hisobga olinishi uchun barcha choralarini ko‘radi.
- 2.7. Bank aksiyadorlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun Bank ustavida minoritar aksiyadorlar qo‘mitasini tashkil qilish imkoniyati nazarda tutilgan. Ushbu qo‘mita Bankda Siyosatni tasdiqlash sanasida Bank mulkdorlari tarkibida minoritar aksiyadorlar mavjud bo‘lmaganligi tufayli tashkil etilmagan.

Dividend siyosati

- 2.8. Dividendlar to‘lash, ular miqdori, to‘lov tartibi va muddatlari to‘g‘risida qaror qabul qilishning aksiyadorlarga tushunarli va shaffof mexanizmini belgilash maqsadida Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi tomonidan har yili dividend siyosati tasdiqlanadi. Yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish
- 2.9. Qonun hujjatlari talablariga va Bankda korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlariga muvofiq, yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish jarayonini tartibga soluvchi ichki hujjat ishlab chiqilgan va qo‘llanilmoqda, shu jumladan Bankning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan mas’ul shaxslar, bitimlarni o‘rganish va kelgusida ular bo‘yicha qarorlar qabul qilish tartibi va shartlari belgilangan.
- 2.10. Bankning yirik bitimlari va affillangan shaxslar bilan bitimlari to‘g‘risidagi axborot qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilinadi.

III. KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI

3.1. Bank korporativ boshqaruv tizimi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari talablariga, Korporativ boshqaruv kodeksiga, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining tavsiyalariga, korporativ boshqaruvning eng yaxshi jahon standartlari va amaliyotlariga to'liq darajada javob beradi (ilova).

3.2. Bank tomonidan 2015 yil 31 dekabrdagi Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiya yig'ilishining 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilgan (2015 y.) Davlat ishtirokiga ega korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalariga rioya etish to'g'risida majburiyatlar qabul qilingan.

3.3. Kodeks tavsiyalarini joriy qilish monitoringini o'tkazish maqsadida Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan yiliga kamida bir marta korporativ boshqaruv tizimini baholaydi, uni amalga oshirish uchun tanlov asosida mustaqil tashkilotni jalg qiladi.

3.4. Korporativ boshqaruv tizimini baholash yakunlari, ulardan barcha manfaatdor shaxslar foydalanishi imkoniyatini yaratish uchun Bankning korporativ veb-saytida va boshqa internet resurslarida e'lon qilinadi.

Bank boshqaruv organlari

3.5. Bank boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Boshqaruv.

3.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Bankning oliy boshqaruv organi hisoblanadi. U orqali Bank aksiyadorlari-aksiya egalari Bank boshqaruvida ishtirok qilish huquqini amalga oshiradilar. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi faoliyati va vakolatlari Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

3.7. Bank Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv funksiyalarini bajaradi hamda umuman Bank faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgar bo'ladi. Kuzatuv kengashining faoliyati va vakolatlari Bank Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi.

3.8. Bank Kuzatuv kengashi Bankni oqilona korporativ boshqaruviga ko'maklashishi hamda o'z vakolatlari va vazifalarini bajarishda Bank, uning omonatchilari va aksiyadorlari qonuniy manfaatlarini hisobga olishi, shuningdek Bankning Markaziy bank bilan samarali hamkorligini ta'minlashi kerak.

3.9. Kuzatuv kengashi tarkibini shakllantirishda va nomzodlarni saylashda ushbu organ tarkibida kamida bir nafar mustaqil a'zo bo'lishi to'g'risidagi talab hisobga olinishi shart.

Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi sifatida saylanishi uchun quyidagi shaxslar taklif etiladi:

- professional jamiyatlar yoki tashkilotlarning a'zolari bo'lgan shaxslar;
- oliy ta'lim va/yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining xodimlari;
- Bank bilan bog'liq bo'lman (affillangan bo'lman) boshqa tashkilotlarning xodimlari hisoblangan, korporativ qonunchilikni biladigan hamda korporativ boshqaruv usullari va tamoyillaridan xabardor bo'lgan shaxslar.

3.10. Bank Boshqaruvi Bank boshqaruvining ijro qiluvchi organi hisoblanadi, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Bank strategiyasi va faoliyatni boshqarish tizimiga asosan Bank operativ boshqaruvini amalga oshiradi va Bank faoliyati uchun to'liq javobgar bo'ladi.

3.11. Bank Boshqaruvi quyidagi majburiyatlarga ega:

- Bank strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoringini o'tkazish va ular to'g'risida xabardor qilishga, kapitalning yetarliligin tegishli darajada saqlashga doir siyosatlarni amalga oshirish;
- Bank boshqaruvining tegishli va shaffof tashkiliy tuzilishini, shu jumladan o'z vakolatlari doirasida bank xodimlari o'rtasida vakolatlar va javobgarlik taqsimlanishini ta'minlash;
- Bank xodimlari faoliyati nazorat qilinishini amalga oshirish;
- Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarish, shuningdek yilning har choragida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashiga amalga oshirilgan ishlar, Bankka qo'llanilgan choralar va sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni taqdim qilish;
- Bank Ustavi, "Boshqaruv to'g'risidagi Nizom" hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarish.

3.12. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek Bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro'siga, Bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

3.13. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek Bankning muhim ahamiyatga ega xodimlarining banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini doimiy ta'minlash uchun Bank barcha choralarini ko'radi.

3.14. Bankda Bank yuqori boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan va uning har bir boshqaruv organi faoliyatini tartibga soladigan ichki normativ hujjatlar ishlab chiqilgan va joriy qilingan.

Ichki nazorat tizimi

3.15. Ichki nazorat – quyidagi sohalarda Bank maqsadlariga erishish borasida tegishlicha asoslangan va yetarlicha tasdiq olish uchun Bank faoliyatiga integratsiyalashgan va tavakkalchiliklarni boshqarishga, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan uzuksiz jarayon:

- faoliyat samaradorligi va unumдорлиги, shu jumladan faoliyat samaradorlik darajasi, foyda olish va aktivlarni himoya qilish;
- moliyaviy hisobotning ishonchliligi va asoslanganligi;
- Bank faoliyatini tartibga soladigan qonun hujjatlariga va huquq normalariga muvofiqlik.

3.16. Ichki nazorat tizimi – Bank Kuzatuv kengashi, Auditorlik qo'mitasi, Taftish komissiyasi, Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo'mitasi, Ichki audit xizmati, Bank xavfsizligi boshqarmasi, Moliyaviy monitoring boshqarmasi, Boshqaruv tomonidan, shuningdek Bankning barcha darajalardagi boshqa xodimlari tomonidan tashkil qilingan va amalga oshiriladigan, ichki hujjatlar bilan belgilangan tashkiliy tuzilma, nazorat qiluvchi choralar, ichki nazorat tartibotlari va usullari majmui, bunda har bir xodim belgilangan tartibda ichki nazorat uchun javobgar bo'ladi.

3.17. Kuzatuv kengashi funksiyalari quyidagilardan iborat:

Bank Kuzatuv kengashining «Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan vakolatlari jumlasiga qo'shimcha ravishda quyidagilar kiradi:

- strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligin lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;
- aktivlarni tasniflash assosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek Bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;
- manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;
- Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

- Bankning boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda Bankning faoliyati natijalari to‘g‘risida bank boshqaruvining hisobotini eshitish;
- Bankning ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, shuningdek Bank ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida Bank boshqaruvi tomonidan Bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o‘tkazish;
- Bank boshqaruvi a’zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o‘rganish, muhokama qilish hamda ular bo‘yicha bahslashish;
- Bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan Bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko‘rish;
- bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to‘g‘risida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga hisobot taqdim etish;
- yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta’minalash;
- Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta’minalash.

Kuzatuv kengashi huzuridagi qo‘mitalar

3.18. Kuzatuv kengashi o‘z tarkibidan Bank faoliyatining muayyan yo‘nalishlari bo‘yicha Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalarini oldindan ko‘rib chiqish va o‘rganish hamda Kuzatuv kengashiga bunday masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish uchun tavsiyalar tayyorlash uchun tashkil qilingan qo‘mitalar – konsultativ-maslahat organlarini shakllantiradi.

3.19. Qo‘mitalar o‘z faoliyatida Kuzatuv kengashiga hisobot beruvchi yordamchi organlar hisoblanadi va Bank yoki Kuzatuv kengashi nomidan faoliyat yuritishga haqli emas.

3.20. Kuzatuv kengashi huzurida Siyosatni tasdiqlash sanasida quyidagi qo‘mitalar faoliyat olib boradi:

Auditorlik qo‘mitasi, uning asosiy maqsadi Bank tomonidan o‘tkaziladigan operatsiyalarning tegishli ishonchlilik darajasini ta’minalash va bank faoliyati tavakkalchiliklarini minimallashtirish ustidan nazorat qilish orqali Bank aksiyadorlari va omonatchilarining manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo‘lib, uning vazifalari va vakolatlari Auditorlik qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan;

Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo‘mitasi, uni tashkil qilishdan maqsad bank tavakkalchiliklarini boshqarish samarali tizimini joriy qilish va Bank Kuzatuv kengashiga nazorat funksiyalarini amalga oshirish va tavakkalchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha choratadbirlar ishlab chiqish masalalarida ko‘maklashish hamda Bank Ustavi, Korporativ kodeksi va boshqa ichki normativ hujjalariга muvofiq Bankdagi ishlar holati to‘g‘risida maksimal xabardorlikni ta’minalashdan iborat bo‘lib, uning vazifalari va vakolatlari Tavakkalchilikni nazorat qilish qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan.

Bank va uning alohida bo‘linmalar faoliyatining ichki moliyaviy-xo‘jalik va huquqiy nazorati funksiyalarini amalga oshirish uchun javobgarlik doimiy amal qiluvchi ichki nazorat organi – **Taftish komissiyasiga** yuklatiladi, uning vazifalari va vakolatlari Taftish komissiyasi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan.

Ichki audit xizmati – Bankda ichki nazorat holati, shu jumladan moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligi, hisobga olishning ishonchliligi va haqqoniyligi, hisobotlarning to‘liqligi va obyektivligi, O‘zbekiston Respublikasining bank qonun hujjalariга, ta’sis va ichki hujjalariга, bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir belgilangan qoidalar va tartibotlarga rioya qilinishi tekshirushi (audit) va monitoringini amalga oshiruvchi, shuningdek Bank Kuzatuv kengashiga Bank operatsiyalari samaradorligi va ishonchlilagini oshirish bo‘yicha maslahatlar beruvchi Ichki audit boshqarmasi hisoblanadi.

Ichki auditning asosiy maqsadi barcha aksiyadorlar, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga faoliyat maqsadlariga erishishda ko'maklashishdan iborat bo'lib, uning vazifalari va vakolatlari Ichki audit boshqarmasi to'g'risidagi Nizomda aks ettirilgan.

Bank tavakkalchiliklarini boshqarish boshqarmasi Tavakkalchilikni nazorat qilish qo'mitasining ishchi organi hisoblanadi. Mazkur Boshqarma vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bank omonatchilari, kreditorlari va aksiyadorlarining manfaatlarini himoya qilish;
- Bank tavakkalchiliklarini kamaytirish, bartaraf etish va oldini olish;
- Bank faoliyatining yetarli darajadagi barqarorligini ta'minlash;
- Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan chegaralar doirasida bank faoliyati tavakkalchiliklarini samarali boshqarish va Bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar xarakteri va miqyosiga mos keladigan tegishli ishonchlilik darajasini ta'minlash orqali investitsiyalar qiymatini maksimallashtirish.

Boshqarma vazifalari va vakolatlari Bank tavakkalchiliklari boshqarmasi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

Moliyaviy monitoring boshqarmasi (komplayens) o'z faoliyatida Moliyaviy monitoring boshqarmasi to'g'risidagi Nizomga amal qiladi, unda uning asosiy vazifalari va vakolatlari aks ettirilgan. Mazkur Boshqarma vazifalari quyidagilardan iborat:

- xavflarni samarali aniqlash/o'rghanish, baholash, hujjatlashtirish, kamaytirish va pullarning noqonuniy o'zlashtirilishi, terrorizmni va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni oldini olish;
- korruption harakatlar va suiiste'molchilikni o'z vaqtida oldini olish;
- pullarning noqonuniy o'zlashtirilishi, terrorizmni va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini mablag' bilan ta'minlashga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioxaya qilinishini ta'minlash;
- Bankda moliyaviy firibgarlik va korrupsiya tavakkalchiliklarini o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish.

3.21. Ichki nazorat tizimi faoliyati uchun javobgarlik Boshqaruv raisiga yuklatiladi. Bank Boshqaruv raisi ichki nazorat tizimi tartibotlarini joriy qiladi va uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi, Kuzatuv kengashini Bankning barcha xavflari, ichki nazorat tizimining jiddiy kamchiliklari, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini va natijalari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladi.

3.22. Ichki nazorat tizimining tegishlicha faoliyat yuritishi xodimlarning kasbiy bilim va mahoratlariga ham bog'liqidir. Bank xodimlarni tanlash, yollash, o'qitish, tayyorlash tizimi ularning yuqori malakali bo'lishlarini va ular tomonidan yuqori axloqiy normalarga rioxaya qilinishini ta'minlash uchun barcha choralarini ko'radi.

Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a'zolari, Korporativ konsultant va muhim ahamiyatga ega xodimlarga haq to'lash

3.23. Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolariga haq to'lashning shaffof mexanizmini ta'minlash maqsadida Bankda "ASIA ALLIANCE BANK" ATB Kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom va "ASIA ALLIANCE BANK" ATB Boshqaruv a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Shuningdek, tavakkalchiliklarni oqilona va samarali boshqarilishiga muvofiq bo'lgan muhim ahamiyatga ega xodimlarni rag'batlantirish usullari ishlab chiqiladi va joriy qilinadi.

3.24. Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash mezonlari quyidagilardan iborat:

- Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida va Bank Kuzatuv kengashi qo'mitalarida shaxsan ishtirok etish;
- mustaqil tashkilot tomonidan o'tkaziladigan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga haq to'lash to'g'risida qaror qabul qilishda qo'shimcha mezonlar belgilanishi mumkin.

3.25. Bank aksiyadorlariga dividendlar to‘lashga, shuningdek Kuzatuv kengashi va Boshqaruva zolariga haq to‘lash orqali foyda taqsimlanishini amalga oshirishga quyidagi holatlarda haqli emas:

- Markaziy bank tomonidan belgilangan prudensial normativlar talablariga nomuvofiqlik yoki ushbu taqsimlanish oqibatida ular buzilgan holatlarda;
- ushbu taqsimlanish oqibatida to‘lov qobiliyatini yo‘qotish (bankrotlik) yoki to‘lov qobiliyatini yo‘qotish (bankrotlik) belgilari paydo bo‘lishi;
- Markaziy bankning ijaror uchun majburiy, shu jumladan axborotni oshkor qilishga doir ko‘rsatmalari bajarilmagan yoki ularda belgilangan kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyati bo‘lmagan holatlarda;
- Markaziy bankning bankka foydani taqsimlamaslik to‘g‘risida talabnomasi mavjud bo‘lgan holatlarda.

shuningdek qayd etilgan axborot resursining qonun hujjatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 02 iyuldagagi 176-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiqligini tekshirish amalga oshiriladi.

IV. AXBOROTNI OSHKOR QILISH VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH

Axborotni oshkor qilish umumiylari

4.1. Bank qonun hujjatlari va Bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq axborot oshkor qilinishini amalga oshiradi.

4.2. Aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari va boshqa manfaatdor shaxslarning investitsiya va boshqaruvi qarorlarini oqilona qabul qilishlari uchun muhim hisoblangan Bank va uning faoliyati to‘g‘risidagi haqqoni va ishonchli axborotni o‘z vaqtida olish bo‘yicha ehtiyojlarini qondirish orqali Bank faoliyati oshkorraligi va shaffofligini ta’minalash maqsadida, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Axborot siyosati to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

4.3. Bank axborot siyosati quyidagi tamoyillar asosida tuziladi: teng huquqlilik, muntazamlilik, operativlik, to‘liqlik, asoslanganlik, bir-biriga zid kelmaslik, obyektivlik, foydalanish imkoniyatini yaratish, muvozanatlanganlik, neytrallik va himoyalanganlik.

4.4. Bank faoliyati shaffofligini ta’minalash, korporativ boshqaruvi tizimi sifatini oshirish hamda investorlar va aksiyadorlar ishonchini mustahkamlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

4.5. Bank axborot siyosatiga rioya etilishini nazorat qilish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

Axborotni oshkor qilish asosiy mexanizmlari

4.6. Boshqaruvi quyidagi shakllarda axborotning o‘z vaqtida va to‘liq oshkor qilinishini ta’minalaydi:

- yillik va choraklik hisobotlari;
- emissiya risolalari;
- muhim faktlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilishi shart bo‘lgan boshqa axborot.

4.7. Bank to‘g‘risidagi axborot Bank faoliyatiga tegishli jiddiy o‘zgarishlarning manfaatdor shaxslargacha o‘z vaqtida yetkazilishini ta’minalaydigan davriylikda oshkor qilinadi.

4.8. Boshqa axborot korporativ boshqaruvning eng yaxshi xalqaro amaliyotlariga muvofiq Bank faoliyati to‘g‘risidagi kengaytirilgan ma’lumotlarni manfaatdor shaxslarga taqdim qilish maqsadida tashabbuskorlik tartibida Boshqaruvi tomonidan oshkor qilinadi.

4.9. Boshqaruvi organlari xodimlari va a’zolari tomonidan olingan bank to‘g‘risidagi har qanday axborot ular tomonidan shaxsiy maqsadlarda ishlatalishi mumkin emas.

4.10. Axborotni oshkor qilish usullari manfaatdor shaxslarning ulardan erkin foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan holda tanlanadi, shu jumladan axborot Bankning rasmiy korporativ veb-saytida (www.aab.uz), Yagona korporativ axborot portalida (www.openinfo.uz) va “Toshkent” Respublika fond birjasi veb-saytida (www.uzse.uz) (Bank qimmatli qog‘ozlari fond birjasining kotirovka varag‘iga kiritilganida) oshkor qilinadi.

Bankning rasmiy veb-sayti

4.11. Bank quyidagi manzil bo‘yicha o‘z rasmiy korporativ veb-saytiga ega: <https://www.aab.uz>. Aksiyadorlar, investorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor shaxslarni Bank faoliyatining turli sohalarini yoritadigan ishonchli operativ axborot bilan ta’minalash maqsadida doimiy asosda ma’lumotlar monitoringi va yangilanishi,

V. TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH. TASHQI AUDIT

Tavakkalchiliklarni boshqarish

5.1. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi – Bank korporativ boshqaruvi tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Tavakkalchiliklarni samarali boshqarish Bankning barqaror rivojlanishi, uning strategik vazifalari bajarilishi va kapitalizatsiya o’sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tavakkalchiliklarni boshqarish uchun Bankda har yili bank tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoringini o’tkazish va ular to‘g‘risida xabardor qilish siyosati tasdiqlanadi. Ushbu siyosat tavakkalchiliklarni boshqarish maqsadlari va vazifalarini, tavakkalchiliklarni boshqarish tamoyillari va tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonini tashkillashtirish, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish jarayoni ishtirokchilarini, ularning vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

5.2. Mazkur siyosatning asosiy maqsadi tavakkalchiliklarni boshqarishning samarali kompleks tizimini tashkil etish, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish usullari va tartibotlariga yagona standartlashtirilgan yondashuv asosida faoliyatni doimiy takomillashtirishdan iborat.

5.3. Bank tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi – yagona jarayonga birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar to‘plamidan iborat bo‘lib, uning doirasida Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi va xodimlar har biri o‘z darajasida Bank faoliyatiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan potensial salbiy hodisalarini aniqlashda, shuningdek aksiyadorlar uchun maqbul tavakkalchiliklar darajasi doirasida ushbu hodisalarini boshqarishda ishtirok qiladi.

5.4. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi ishtirokchilarini quyidagilardan iborat:

1) Kuzatuv kengashi, shu jumladan Kuzatuv kengashi huzurida quyidagi qo‘mitalar faoliyat yuritadi:

- Audit qo‘mitasi;
- Tavakkalchiliklarni nazorat qilish qo‘mitasi.

2) Boshqaruvi, shu jumladan Boshqaruvi huzurida quyidagi qo‘mitalar faoliyat yuritadi:

- Bank aktivlari va passivlarini boshqarish qo‘mitasi;
- Kredit qo‘mitasi;
- Investitsiya qo‘mitasi;
- tavakkalchiliklarni boshqarish funksiyasi vakolatlariga kiradigan boshqa vakolatli organlar.

3) Bankning tavakkalchiliklarni boshqarish uchun mas’ul tarkibiy bo‘linmalari;

4) Ichki audit xizmati;

5) Bankning boshqa tarkibiy bo‘linmalari va xodimlari.

Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish jarayoni ishtirokchilarining vakolatlari va javobgarligi Bank tavakkalchiliklarini aniqlash, boshqarish, monitoringini o’tkazish va ular to‘g‘risida xabardor qilish siyosati bilan tartibga solinadi.

Tashqi audit

5.5. Bank o‘z moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining majburiy auditorlik tekshiruvini amalga oshirish maqsadida aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining qaroriga asosan mustaqil auditorlik tashkilotini (tashqi auditni) jalb qiladi. U aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, u bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, auditorlik xulosasini taqdim qiladi.

5.6. Mustaqil auditorlik tashkiloti boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun Bank Kuzatuv kengashi tomonidan jalb qilinishi mumkin.

VI. MOLIYAVIY HISOBOT

6.1. Moliyaviy hisobot Bankning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul mablag‘lari harakatlanishini haqqoniy taqdim qiladi. Bankning moliyaviy hisoboti, moliyaviy hisobotga bo‘lgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, Xalqaro moliyaviy hujjatlar standartlari talablariga asosan aniq va vijdonan tayyorlanadi.

6.2. Moliyaviy hisobot Bankning moliyaviy holati va moliyaviy natijalari tartibli aks ettirilishini o‘z ichiga oladi. Qayd etilgan maqsadga erishish uchun moliyaviy hisobot Bank faoliyatining quyidagi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aks ettiradi:

- (a) aktivlar;
- (b) majburiyatlar;
- (c) kapital;
- (d) daromadlar va xarajatlar, shu jumladan foyda va zararlar;
- (e) a’zolik badallarini mulkdorlar va mulkdorlar sifatida faoliyat yurituvchilar o‘rtasida taqsimlanishi;
- (f) pul mablag‘larining harakatlanishi.

6.3. Moliyaviy hisobot uzluksizlik tamoyili asosida tuziladi. Bank har yili moliyaviy hisobotning to‘liq to‘plamini (shu jumladan solishtirma ma’lumotni) taqdim qiladi.

VII. MANFAATLAR TO‘QNASHUVI OLDINI OLISH TAMOYILLARI

7.1. Manfaatlar to‘qnashuvi – Bank (uning boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari) mulkiy yoki boshqa manfaatlar, kreditorlar, kontragentlar va boshqa mijozlarning mulkiy yoki boshqa manfaatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvdan iborat bo‘lib, bunda Bankning boshqaruv va nazorat organlari va (yoki) uning xodimlari harakatlari (harakatsizligi) natijasida aksiyadorlar huquqlari va qonuniy manfaatlar buzilishi holatlariga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

7.2. Bankda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ishlar asosini quyidagi tamoyillar tashkil etadi:

- haqiqiy yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish majburiyligi;
- har bir manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashda va uni hal qilishda, Bank obro‘-e’tiboriga oid tavakkalchiliklarini baholash, yakka tartibda ko‘rib chiqish;
- manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish va uni hal qilish jarayoni mahfiyligi;
- belgilangan vakolatlar doirasida qarorlar qabul qilishda Bank boshqaruv organlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va korporativ nizolar paydo bo‘lishi oldini olish va bunga yo‘l qo‘ymaslik.

VIII. XODIMLARNI BOSHQARISH SIYOSATI

8.1. Bankda kadrlar siyosati Xodimlarni boshqarish siyosati bilan tartibga solinadi.

Xodimlarni boshqarish siyosati – “ASIA ALLIANCE BANK” ATB xodimlarni boshqarish bo‘yicha yaxlit uzoq muddatli strategiyasi bo‘lib, undan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat

- a) Bankning kerakli miqdordagi sifatli mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq va o‘z vaqtida ta’minlash;
- b) jipslashgan, mas’uliyatli va serunumli mehnat jamoasini tashkil qilish;
- v) xodimlarga investitsiyalardan maksimal foyda olish.

8.2. Xodimlarni boshqarish siyosati:

- a) xodimni yollash bosqichlarida unga (ma’lumoti, ish staji, maxsus tayyorgarlik darajasi va h.k. yuzasidan) qo‘yiladigan talablarni;
- b) Bankda yangi ish joylarini yaratish xususiyatiga, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlashga nisbatan munosabatni;
- v) kadrlarning ichki ish joylarini o‘zgartirishga nisbatan munosabatni shakllantiradi.

8.3. Xodimlarni boshqarish siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bank muhim tarkibiy bo‘linmalarining kadrlar tarkibini optimallashtirish va barqarorlashtirish;
- Bank xodimlarini motivatsiyalash samarali tizimini yaratish;
- Bankda qat’iy tashkiliy tartibni tadbiq etish va bir maromda saqlash, xodimlar ishchanligini, bajarayotgan vazifalari uchun mas’uliyatini kuchaytirish, mehnat va ishlab chiqarish intizomini mustahkamlash;
- kadrlar zaxirasini yaratish;
- mutaxassislarning o‘qitish va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
- salohiyatli kadrlarni rivojlanishi uchun muhit yaratish;
- bankning korporativ madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish.

8.4. Xodimlarni boshqarish siyosatining asosiy talablari quyidagicha qabul qilinadigan sifatdan iborat:

- biznesga jalb qilingan xodimlar sifati;
- ko‘rsatiladigan xizmatlar va taqdim qilinadigan mahsulotlar sifati;
- biznes-jarayonlar sifati va samaradorligi.

8.5. Yaqin yillar uchun kadrlar siyosatining asosiy vazifasi Bank strategik rivojlanish vazifalari hal qilinishini ta’minlay oladigan, uning raqobatlari ustuvorliklarini ta’minlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan mutaxassislar jamoasini shakllantirishdan iborat.

8.6. Bankning kadrlar siyosati Bank oldida turgan vazifalarni sifatli va operativ hal qilishga qodir, ishga layoqatli, jipslashgan jamoani shakllantirishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun Bank rabbariyati xodimlarning kasbiy darajasini oshirishga, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni takomillashtirishga, xodimlarning tez kasbiy o‘sishi uchun imkoniyatlarni kuchaytirishga yo‘naltirilgan ishlarni muntazam ravishda reja asosida olib bormoqda.

IX. KORPORATIV XULQ VA ODOB-AXLOQ

9.1. Bankning ichki hujjalarda belgilangan axloq tamoyillariga boshqaruv organlari barcha a’zolari tomonidan so‘zsiz rioya qilinishi, axloqiy tamoyillarga yo‘naltirilgan korporativ madaniyat asosini tashkil etadi, Bankning ishchanlik obro‘-e’tibori mustahkamlanishiga, Bank mijozlari va hamkorlari bilan hamkorlikni rivojlanishga ko‘maklashadi.

9.2. Boshqaruv organlarining barcha a’zolari Bankning ichki normativ hujjalarda belgilangan yuqori kasbiy va odob-axloq tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishlari, har qanday turdag'i va shakldagi korrupsiyaga chidamsiz bo‘lishlari, qonun hujjalari talablariga rioya qilishlari, odob-axloq hamda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha muntazam ta’lim olishlari shart. Yuqorida qayd etilgan masalalar bo‘yicha Bankda tegishli ichki normativ hujjalar ishlab chiqilgan va joriy qilingan.

9.3. Bank bilan bog‘liq yoki Bank nazorati ostidagi yuridik shaxs bilan bog‘liq shubhali faoliyat, firibgarlik yoki suiiste’molchilik to‘g‘risida ma’lum qiladigan Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi a’zosi yoki Bank xodimi shaxsi sir saqlanishi kerak.

X. BANK RIVOJLANISH STRATEGIYASI

10.1. Bank rivojlanish strategiyasi, uning umumiy faoliyatiga, alohida bo‘linmalari va xizmatchilar faoliyatini baholash imkonini beradigan, shuningdek tegishli davrda erishilgan natijalarni rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan solishtirish imkonini beradigan son va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi kerak.

10.2. Bank rivojlanish strategiyasi hamda uzoq muddatli va o‘rtal muddatli istiqboldagi vazifalarni belgilash uchun Bank boshqaruv organi:

- raqobatli muhit tahliliga va Bankning barqaror rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha vazifalarga asoslangan holda, Bank rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida tasdiqlaydi;
- xorijiy amaliyotda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilgan boshqaruv usullarini, shu jumladan SWOT tahlil va boshqa yondashuvlarni keng joriy qiladi;
- aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan uzoq muddatli strategiya asosida qisqa muddatli (yillik) biznes-rejalarni ishlab chiqadi hamda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga va Kuzatuv kengashiga tasdiqlash (ma’qullah) uchun kiritadi.

10.3. Bank Kuzatuv kengashi strategik vazifalarni bajarishda ijro etuvchi organ faoliyatini muvofiqlashtiradi, zarur hollarda, Bank strategiyalari va biznes-rejalarini ishlab chiqish va monitoringini o‘tkazishni tashkillashtirish uchun ekspertlarni jalg qiladi.

XI. BANK MIJOZLARI VA XODIMLARI BILAN O‘ZARO MUNOSABATLAR TAMOYILLARI

Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlari

11.1. Bank keng mijozlar doirasiga moliyaviy va bank xizmatlarini taqdim qilishga yo‘naltirilgan. Bu jihatdan bank strategiyasi quyidagilar orqali mijozlar bazasini doimiy kengaytirish va ularga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdan iborat:

- qabul qilingan o‘zaro majburiyatlar tavakkalchiliklar darajasini baholash uchun, bank o‘z mijozlarini ko‘rsatilayotgan xizmatlari, molivaviy imkoniyatlari, ichki va jahon bozori konyunkturasi, foydalanimadigan bank texnologiyalari to‘g‘risidagi to‘liq axborot bilan yetarli darajada ta’minlashi;
- hisob-kitob, kassa va kredit operatsiyalarini o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish, bank hisobvaraqlarini ochish, qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini kafolatlagan holda boshqa xizmatlarni ko‘rsatish;
- har bir mijoz manfaatlarini himoya qilish, har qanday shaklda kamsitish va subyektiv faktorlar asosida preferensiyalar, asossiz imtiyozlar taqdim qilishni istisno qilish;
- mijozlar hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalari va holatiga doir axborot muhofaza qilinishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardagina axborotni oshkor qilish;
- yuzaga keladigan nizoli va kelishmovchilik holatlarini operativ ko‘rib chiqish, ularni samarali va muzokaralar orqali hal qilishga ko‘maklashish;
- qonun hujjatlari normalari va bank qoidalari qo‘llanilishiga doir malakali tushuntirish ishlarini o‘tkazish.

11.2. Xodimlarning mijozlar bilan o‘zaro munosabatlari “ASIA ALLIANCE BANK” ATBda mijozlarga xizmat ko‘rsatish standartlari” talablariga muvofiq o‘rnataladi. Bank mijozlar bilan barqaror va ishonchli munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga intiladi, ular bilan munosabatlari: “Hurmat, halollik va ochiqlik” tamoyili asosida quriladi. Xodimlar yuzaga kelgan masalalarni hal qilishda mijozning xabarsizligidan (yoki bilimi yetishmasligidan) Bank manfaatlarida yoki shaxsiy maqsadlarda foydalanmaydilar.

11.3. Mijozlar murojaatlari bilan ishlarni tartibga solish maqsadida Bankda “ASIA ALLIANCE BANK” ATB tizimida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishslash to‘g‘risida Nizom” ishlab chiqilgan. Bank mijozlarning tegishlicha bank xizmati ko‘rsatilmaganligi tufayli shikoyatlaridagi murojaatlarini diqqat bilan ko‘rib chiqadi va ularga o‘z vaqtida e’tibor qaratadi.

Xodimlar bilan o‘zaro munosabatlar

11.4. Bank o‘z xodimlarining bilimi va kasbiy mahoratini, tartibli va intizomliligini qadrlaydi. Xodimlar bilan munosabatlarni Bank hamkorlik, o‘zaro hurmat va olingan majburiyatlarni so‘zsiz ijro etish tamoyillari asosida o‘rnatadi.

11.5. Bank har bir xodim o‘z ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy mahoratlarini maksimal namoyon etish, o‘z ustida ishslash va amaliy malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladigan tarzda qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

11.6. Bank o‘z xodimlariga nisbatan biron-bir shaklda haq-huquq kamsitilishini istisno qiladi. Bankning barcha xodimlariga ishga qabul qilish, kelgusida martabasini oshirish, kasbiy ta‘lim uchun tanlash, xavfsiz mehnat sharoitlari yaratish, ish haqi miqdori, malakasiga va faoliyat natijalariga, amaliy hissasiga mehnat qonunchiligi hujjatlariga muvofiq ravishda moddiy rag‘batlantirish va Bank ijtimoiy dasturlari orqali taqdim qilinadigan imtiyozlar borasida teng imkoniyatlar taqdim qilinadi. Ushbu masalalarni hal qilishda xodimning faqat kasbiy mahorati, ishga vijdonan yondashishi, shaxsiy salohiyati va bor kuchini sarflab ishlashi hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

11.7. Bank xodimlarning bank hayotida faol ishtirokini olqishlaydi, bu korporativ madaniyat va ichki hamkorlik rivojlanishiga ko‘maklashadi. Bunda Bank xodimlardan tegishli ravishda quyidagilarni talab qiladi:

- “ASIA ALLIANCE BANK” ATB Korporativ odob-axloq kodeksiga amal qilish;
- Bankning ichki mehnat tartib qoidalari, lavozim vazifalari va boshqa ichki hujjatlari qoidalarni bajarish;
- rahbariyat topshiriqlari va vazifalari ijrosiga mas’uliyat bilan yondashish va muntazam asosda o‘zini o‘zi takomillashtirish;
- aksiyadorlar, mijozlar va hamkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun kasbiy bilimlari, tajriba va malakalaridan foydalanish, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi oldini olishga qaratilgan oqilona va mas’uliyatli harakatlarni amalga oshirish;
- Bank mulkiga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish;
- mijozlar omonatlari va hisobvaraqlari to‘g‘risidagi axborot, bank va tijorat sirini o‘z ichiga olgan boshqa ma’lumotlarning tegishlicha saqlanishini ta’minalash;
- “ASIA ALLIANCE BANK” ATB Korporativ odob-axloq kodeksiga muvofiq, Bank obro‘-e’tiborini va shaxsiy imidjini ta’minalash, kasbiy odob-axloq, korporativ madaniyat qoidalariiga rioya qilish.

11.8. Bank quyidagilarni ta’minalaydi:

- qonun hujjatlari va mehnat shartnomasida belgilangan tartibda xodimlar oldidagi majburiyatlarning qat’iy bajarilishi;
- munosib ish haqi, me’yoriy va xavfsiz mehnat sharoitlari;
- faqat qonun hujjatlari, ichki hujjatlari va raqobatchilik shart-sharoitlari doirasida cheklangan xizmat vazifalarini bajarish uchun kerakli axborot, shuningdek Bank faoliyatidagi o‘zgarishlar va qabul qilinadigan strategik xarakterga ega qarorlar haqidagi ma’lumotlar;
- malaka, bilim oshirish, amaliy malakalarini oshirish va o‘zini o‘zi takomillashtirish sohasida teng huquqlar va imkoniyatlar;
- turli xil darajali kasbiy tayyorgarlikka ega xodimlar mehnatidan eng ko‘p foyda olinadigan uchastkalarda foydalanish.

11.9. Bank faoliyati natijalariga amaliy hissasi hisobga olingan holda vijdonan mehnatni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish, shuningdek ijtimoiy qo’llab-quvvatlash maqsadlarida, “ASIA ALLIANCE BANK” ATB xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ish haqi to‘lash to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqilgan.

XII. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Mazkur Siyosat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan paytdan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

12.2. Mazkur Siyosatga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan amalga oshiriladi.

Bank faoliyatining mazkur Siyosat qoidalariga muvofiqligi yuzasidan monitoring Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

12.3. Mazkur Siyosat O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Bank Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi, shuningdek banklarning korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish tartibini belgilaydigan va korporativ boshqaruv masalalarini tartibga soladigan Markaziy bankning me’yoriy-huquqiy hujjatlari o‘zgargan holatda qayta ko‘rib chiqiladi.

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB korporativ boshqaruv tizimi

